

“O‘ZBEKISTON SANOATINING TARMOQLAR VA HUDUDIIY TARKIBI” MAVZUSINI O‘QITISHDA “VENN DIAGRAMMA” METODINI QO‘LLASH

Jalilova Charos Zarifovna

*Buxoro davlat pedagogika instituti,
tabiiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi.*

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiya modulida o‘qitiladigan “O‘zbekiston sanoati” mavzusida “Venn diagramma” metodini qo‘llashga bag‘ishlangan. Mazkur maqolada Toshkent, Farg‘ona va Zarafshon iqtisodiy rayonlarida sanoatning tarmoqlar va hududiy tarkibi “Venn diagramma” metodi orqali tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada dars mashg‘ulotning tuzilishi ham bayon qilingan. Bundan tashqari, O‘zbekiston sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi” mavzusi yuzasidan Venn diagramma tuzish bo‘yicha topshiriqlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, pedagogik texnologiya, interfaol usullar, “Venn diagramma” metodi, geografiya, O‘zbekiston geografiyasi, sanoat, O‘zbekiston sanoati, sanoatining tarmoqlar tarkibi, sanoatining hududiy tarkibi.

Аннотация: Статья посвящена применению метода «диаграммы Венна» по теме «Промышленность Узбекистана», преподаваемой в модуле экономической и социальной географии Узбекистана. В данной статье проводится анализ отраслей и региональной структуры промышленности в экономических районах Ташкента, Ферганы и Зарафшана с использованием метода диаграммы Венна. Также в статье описывается структура урока. Кроме того, представлена диаграмма Венна на тему «Отраслевая и региональная структура промышленности Узбекистана».

Ключевые слова: Образование, педагогические технологии, интерактивные методы, метод диаграмм Венна, география, география Узбекистана, промышленность, промышленность Узбекистана, отраслевая структура промышленности, региональная структура промышленности.

Abstract: The article is devoted to the application of the Venn diagram method on the topic "Industry of Uzbekistan", taught in the module of economic and social geography of Uzbekistan. This article

analyzes the industries and regional structure of industry in the economic regions of Tashkent, Fergana and Zarafshan using the Venn diagram method. The article also describes the structure of the lesson. In addition, a Venn diagram is presented on the topic “Sectoral and regional structure of the industry of Uzbekistan”.

Key words: Education, pedagogical technologies, interactive methods, Venn diagram method, geography, geography of Uzbekistan, industry, industry of Uzbekistan, sectoral structure of industry, regional structure of industry.

Hozirgi kundagi eng dolzarb masala va vazifa ta’lim standartlarini o’quv jarayoniga tadbqiq etishdan iboratdir. Ta’lim mazmunini isloh qilib, u jahon ta’lim sandartlariga muvofiqlashtirishda ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor berilgan. Xususan, kadrlar tayyorlash milliy dasturida “o’quv jarayonini ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash” zarurligi ham alohida ko’rsatib o’tilgan.

Yangi pedagogik texnologiyani o’quv jarayoniga tadbqiq etish uchun uning ilmiy – amaliy mexanizmini yaratish zarur. Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta’lim – tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog’liq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo’lishlari zarur.

Interfaol usullar qo’llanilganida talabalar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o’rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko’nikmalarini egallaydi. Interfaol ta’lim berish usuli, ta’limiy maqsadni amalga oshirish bo’yicha ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi. Tajribalarning ko’rsatishicha, usulning asosiy natijaviylik mezonlari quyidagilar:

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo’llashning mosligi va iqtisodiyligi;
- uni qo’llashda soddalik va osonlik;
- nafaqat eng yaxshi natijalarni ta’minlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchligini ta’minlay olishi.

Har qanday texnologiya ta’limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslanadi va ta’lim oluvchi shaxsini

tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va talabalar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi.

O'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materiallarini o'zlashtirishga sharoit yaratadi. Pedagogik texnologiyaning yetakchi muammosi talaba shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iboratdir.


Pedagogik texnologiya turini tanlash dars va mashg'ulotda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni nazarda tutilganiga bog'liqdir. Bu butun mashg'ulot davomida talabalarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talabalarni o'quv yoki o'quv ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, yetarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani ko'zlamagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib keladi.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi aniq masalalar qo'yish orqali talabani o'ylashga, mustaqil fikrlashga odatlantirishga qaratilgandir. Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishish va uni tadbiq etishni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini oldindan loyihalashtirishda namoyon bo'ladi.

Faol ta'lim berish usuli – ta'lim oluvchilarning bilim faoliyatlarini rag'batlantiruvchi usuldir. U yoki boshqa muammoni yechish to'g'risidagi fikrlarni erkin almashinuvini nazarda tutuvchi suhbat asosida quriladi. Ushbu ishda "O'zbekiston sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi" mavzusini o'qitishda "Venn diagramma" metodini qo'llash usullari ko'rib chiqildi.

«Venn diagrammasi» strategiyasi (metodi) tahsil oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarini shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o'zaro teng to'rt bo'lakka ajratiladi va har bir bo'lakka quyidagi sxema chiziladi:



1-rasm. «Venn diagramma» strategiyasi

Strategiya tahsil oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu strategiyadan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Strategiyani qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- ❖ sinf tahsil oluvchilari to'rt guruhga bo'linadi;
- ❖ yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi;
- ❖ har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu (bo'lim, bob) yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi;
- ❖ topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi;
- ❖ liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to'ldiradilar.


1-jadval

“O'zbekiston sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi” mavzusi yuzasidan Venn diagramma tuzish bo'yicha topshiriqlar

Guruhlar	Diagramma ning tartib raqami	Topshiriqlar Mazmuni
1-guruh	1 diagramma	Toshkent mintaqasining sanoat tarmoqlari
	2 diagramma	Farg'ona mintaqasining sanoat tarmoqlari

	3 diagramma	Zarafshon mintaqasini sanoat tarmoqlari
2-guruh	1 diagramma	O'zbekiston neft sanoati
	2 diagramma	O'zbekiston gaz sanoati
	3 diagramma	O'zbekiston ko'mir sanoati
3-guruh	1 diagramma	Issiqlik elektr stansiyalari
	2 diagramma	Gidroelektr stansiyalar
	3 diagramma	Noan'anaviy energiya manbalari
4-guruh	1 diagramma	O'zbekiston yengil sanoat tarmoqlari
	2 diagramma	O'zbekiston oziq-ovqat sanoat tarmoqlari
	3 diagramma	O'zbekiston mahalliy sanoat tarmoqlari

“Venn diagrammasi” strategiyasini qo'llash jarayonida guruhlar tomonidan tashkil etiluvchi faoliyat mohiyati quyidagichadir (faoliyat mohiyati Oliy ta'lim muassasalarining 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari va 60530400 – Geografiya ta'lim yo'nalishlari talabalariga O'zbekiston geografiyasi fanidan “O'zbekiston sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi” mavzusi yuzasidan bilimlarni o'rganish asosida ochib beriladi):



2-rasm. Toshkent, Farg'ona va Zarafshon mintaqalarining sanoat tarmoqlarini o'rganish bo'yicha berilgan topshiriqqa (1-guruh) doir Venn diagramma namunasi

Izoh. Raqamlar bilan quyidagi sanoat tarmoqlari ko'rsatilgan:

	Sanoat tarmoqlari		Sanoat tarmoqlari
1	Yoqilg'i sanoati	7	Yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza qog'oz sanoati
2	Elektroenergetika sanoati	8	Qurilish materiallari sanoati
3	Qora metallurgiya sanoati	9	Yengil sanoat
4	Rangli metallurgiya	10	Oziq-ovqat sanoati
5	Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	11	Mahalliy sanoat
6	Kimyo va neft-kimyo sanoati		

Mashg'ulotning tuzilishi quyidagicha bo'ladi:

I. Professor-o'qituvchining kirish so'zi. Bunda professor-o'qituvchi ma'ruza mashg'ulotining maqsadi va vazifalari, talabalar yakka tartibda va juftlikda bajaradigan o'quv topshiriqlari bilan 5 daqiqa davomida tanishtiradi.

II. Talabalar faolligini oshirish maqsadida "O'zbekiston sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi" mavzusini "Venn diagramma" metodi yordamida 10 daqiqa davomida bajarishga va hal etishga yo'llash.

III. Talabalar yordamida tuzilgan "O'zbekiston sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi" "Venn diagramma" si alohida tarmoqlar va hududlar bo'yicha ajratilib, har bir tarmoq va hududning respublika sanoatida tutgan o'rniga baho beriladi, shuningdek, O'zbekiston va viloyatlarning iqtisodiy xaritalarini tahlil qilish asosida ulardagi sanoatning tarmoqlar va hududiy tarkibi 10 daqiqa davomida o'rganiladi, sanoat geografiyasi mavzusiga oid tayanch tushunchalar tushuntirilib, xulosa qilinadi.

IV. Mavzuga oid ma'lumotlar taqdimot yordamida 35-40 daqiqa davomida tushuntiriladi.

V. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash. 13-15 daqiqa davomida "Venn diagramma" o'tkaziladi, faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiriladi va baholanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

VII. Darsni umumiy yakunlash.

"O'zbekiston sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi" ma'ruza mashg'ulotini "Venn diagramma" metodi yordamida o'qitishning bir ko'rinishini yoritamiz.

Mashg'ulotning tashkiliy qismi 5 daqiqa davom etganidan so'ng, professor-o'qituvchi talabalar yordamida "O'zbekiston sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi" "Venn diagramma" sini 10 daqiqa davomida tuzadi, keyin O'zbekiston va viloyatlarning iqtisodiy xaritalarini tahlil qilish asosida ulardagi sanoatning tarmoqlar va hududiy

tarkibi 10 daqiqa davomida o'rganiladi, sanoat geografiyasi mavzusiga oid tayanch tushunchalar o'rganilib bevosita "O'zbekiston sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi" mavzusi yuzasidan xulosa chiqariladi.

Keyin mavzuga oid ma'lumotlarni taqdimot yordamida 35-40 daqiqa davomida talabalarga tushuntirib beradi.

O'qituvchi tomonidan talabalar bilimni nazorat qilish va baholash maqsadida 15 daqiqa davomida "Venn diagramma" metodi qo'llaniladi.

Talabalar "Venn diagramma" metodida berilgan potentsiallar usulida optimal yechimni topish ketma-ketligini avval yakka tartibda 5 daqiqada mustaqil ravishda topib diagrammaning yakka javob qismini to'ldirishadi, keyin juftlikda 5 daqiqa davomida jadvalning guruh javobi ustunini juftlari bilan maslahatlashib, o'z javoblarini umumlashtiradi va to'ldirishadi.

Professor-o'qituvchi 3 daqiqa davomida to'g'ri javob ketma-ketligini aytadi, talabalar guruh xatosi ustunini to'ldirib, qayerda xato qilganliklarini muhokama qilishadi.

Faol ishtirok etgan, to'g'ri javobni topgan talabalar rag'batlantiriladi va baholanadi. Guruhdagi talabalar shu savollar yuzasidan maslahatlashib, o'z fikrlarini umumlashtiradi. Har bir guruh sardori guruh fikrini bayon etadi.

Qolgan 2 daqiqa davomida dars yakunlanib, talabalarning savollari bo'lsa javob beriladi, uyga vazifa sifatida "O'zbekiston sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi" ni yozuvsiz xaritada tasvirlab, tayanch tushunchalarni o'rganish beriladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakat oliy o'quv yurtlarida geografiya fanini o'qitish metodikasini modernizasiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Geografiya fanlari tizimini o'qitish jarayonida innovasion texnologiyalar mexanizmini yaratish, mashg'ulotlarda faol va interfaol metodlarni izchil qo'llash va shu orqali ta'lim sifati samaradorligiga erishishda o'qituvchidan o'z ustida muntazam ishlash va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni talab etadi.

Bugungi kunning talabalarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkillashtirish va har tomonlama yetuk soha mutaxassislarini tayyorlash uchun zamonaviy xorijiy tajribalardan unumli foydalanish taklif etiladi. Ta'lim oluvchilar uchun mavjud ko'nikmalarni qisqa vaqt ichida o'zlashtirishga ijobiy ko'maklashuvchi metodlarni joriy etish va takomillashtirish darkor. Shunday qilib, geografiya fanlar tizimi bo'yicha mustaqil ishni tashkil etishda talabalar o'tilgan mavzularni qaysi darajada

tushunganligi va o'zlashtirganligini aniqlash maqsadida turli sxemalar tuzish, klasterlar va venn diagrammalar chizish kabi metodlarni qo'llash bugungi zamonning talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonov A. M. et al. Grouping and assessment of tourism and recreation resources of Bukhara region //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2021. – T. 7. – №. 6. – C. 1-1.
2. Mavlonov A. M., Nematov A. N. THE INFLUENCE OF THE ZARAFSHAN RIVER ON THE DEVELOPMENT OF CITIES //Экономика и социум. – 2020. – №. 11. – C. 229-232.
3. Muhamadovich M. A. et al. DEVELOPMENT OF MIDDLE CITIES IN ZARAFSHAN REGION //EPRA International Journal of Research & Development (IJRD). – 2021. – T. 6. – №. 12. – C. 1-1.
4. Muhammadovich M. A., Zakirovna H. N. Agglomeration Processes in Modern Urban Planning (On the Example of Bukhara Agglomeration) //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 10. – C. 9-12.
5. Mavlonov A., Jalilova C. GEOGRAPHICAL ASPECTS OF USE OF RECREATION RESOURCES FOR TOURISM (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION) //InterConf. – 2020.
6. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. - T.: O'qituvchi, 1994.
7. Ата-Мирзаев О., Тухлиев Н. Узбекистан природа население экономика. - Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009.
8. Soliev A. O'zbekiston geografiyasi. - T.: Universitet, 2014.
9. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov SH. O'zbekiston hududlari ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi . - T.: Mumtoz so'z, 2010.
10. <http://www.geografiya.uz>